

Po'lat o'tda toblanadi, odam mehnatda

Metallurg Minbari



O'zbekiston metallurgiya kombinati aksiyadorlik jamiyatining gazetasi

2026-yil 7-may №8 (1570)
Gazeta 1992-yil 7-martdan nashr etilmoqda

O'ZBEKISTON-CHEXIYA BIZNES-FORUMI

Tadbirda O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri Abdulla Oripov va Chexiya Respublikasi Bosh vaziri Andrey Babish, shuningdek, sanoat korxonalari, investitsiya va moliya tuzilmalari vakillari ishtirok etdi.

2 ➤

"ZAKOVAT - 2026"

"Metallurg" jamoasi final bosqichida ishonchli o'yin namoyish etdi va faxrli 1-o'rinni egalladi.

3 ➤

DAM OLISH KUNLARI - SAMARQANDGA

Korxona ishchi-xodimlari uchun Samarqand shahriga navbatdagi madaniy-ma'rifiy sayohat tashkil etildi.

4 ➤

9-may - Xotira va qadrlash kuni

TARIX SABOG'I VA INSON QADRI



9-may yurtimizda chuqur ma'no kasb etgan, qalblarni birlashtiradigan sana sifatida nishonlanadi. Bu kun Vatan ozodligi va tinchligi uchun jonini fido qilganlar, mashaqqatli yillarda matonat ko'rsatgan insonlar xotirasiga ehtirom ramzidir.

Shu bilan birga, u bugungi osoyish-ta hayot qadrlarini anglashga undaydi.

Ikkinchi jahon urushi yillarida O'zbekistonliklar frontda ham, orqada ham ulkan jasorat namunasini namoyon etgan. Jang maydonlaridagi mardlik, mehnat frontidagi fidoyilik — barchasi g'alabaga munosib hissa bo'lib qo'shilgan. Bu tarixiy haqiqat faqat raqamlarda emas, balki inson taqdiri, oila dardi va umidlarida aks etadi.

Xotira va qadrlash kuni kengroq mazmun kasb etmoqda. U faqat urush qatnashchilari xotirasi bilan cheklanib qolmay, balki jamiyat ravnaqiga hissa qo'shayotgan barcha insonlarni e'zozlash kuniga aylanmoqda. Mehnatkash dehqondan tortib, zamonaviy mutaxassisgacha bo'lgan har bir fuqaro o'z hissasi bilan yurt taraqqiyotiga xizmat qiladi. Ular orasida ilm-fan

vakillari, tadbirkorlar, san'atkorlar ham borki, ularning sa'y-harakatlari jamiyat taraqqiyotini tezlashtiradi.

Jurnalistika bu jarayonda muhim o'rin tutadi. Zamonaviy yondashuv inson taqdirini markazga olishni, tarixni jonli misollar orqali yoritishni talab etadi. Quruq ma'lumot emas, balki hayotiy hikoyalar orqali o'quvchi qalbiga ta'sir o'tkazish mumkin. Ana shu orqali xotira tirik saqlanadi.

Yosh avlod uchun bu sana alohida ahamiyatga ega. Ularga tinchlikning qadri, o'tmish saboqlari va insonga hurmat tuyg'usi singdirilishi zarur. Chunki kelajak aynan shu qadriyatlar asosida quriladi. Har bir yosh o'z tarixini bilib, undan to'g'ri xulosa chiqara olsa, jamiyat rivoji yanada barqaror bo'ladi.

Xotira o'tmishni unutmaslikka chorlaydi, qadr esa insonni ulug'laydi. Shu ikki tushuncha uyg'unligi jamiyat barqarorligi va ma'naviy yuksalishi-ni muhim asosidir.

**Bahodir
RAHMONQULOV.**

BEKOBOD - 81 YOSHDA

BEKOBOD — SANOAT VA TARIX UYG'UNLASHGAN SHAHAR

1945-yil 7-may. Bu sana Toshkent viloyatining muhim sanoat markazlaridan biri Bekobod shahrining rasman tashkil topgan kuni sifatida tarix sahifalariga muhrlangan.

Urush tugash arafasida vujudga kelgan ushbu shahar nafaqat iqtisodiy, balki strategik ahamiyati bilan ham alohida o'rin tutadi.

Bekobodning shakllanishi bevosita industrial rivojlanish bilan bog'liq. Ayniqsa, metallurgiya sanoati bu hududning yuragiga aylangan. O'tgan asrning o'rtalaridan boshlab, bu yerda yirik sanoat korxonalari barpo etildi, yangi ish o'rinlari yaratildi va shahar aholisi izchil ravishda o'sib bordi. Bu jarayon Bekobodni qisqa vaqt ichida muhim ishlab chiqarish markaziga aylantirdi.

Bugungi kunda Bekobod — nafaqat sanoat shahri, balki zamonaviy infratuzilmaga ega, ijtimoiy hayot jadal rivojlanayotgan hududdir. Yangi turar-joy massivlari, ta'lim muassasalari, madaniy obyektlar barpo etilmoqda. Shahar ko'rinishi yildan yilga yangilanib, aholi uchun qulay shart-sharoitlar yaratilmoqda.

Shu bilan birga, Bekobod o'zining mehnatkash aholisi bilan ham ajralib turadi. Bu yerda turli millat vakillari ahil-inoq yashab, shahar taraqqiyotiga o'z hissasini



qo'shib kelmoqda. Ularning fidokorona mehnati tufayli Bekobod nafaqat o'tmishda, balki bugungi kunda ham mamlakat iqtisodiyotida muhim o'rin egallab turibdi.

1945-yildagi asos solinishidan buyon o'tgan vaqt mobaynida Bekobod katta yo'lni bosib o'tdi. Urushdan keyingi qiyin davrlar, iqtisodiy o'zgarishlar, yangi taraqqiyot bosqichlari — bularning barchasi shahar tarixida o'z izini qoldirgan.

Bekobod bugun — o'tmish tajribasi va kelajakka intilish uyg'unlashgan makon. Uning tarixi mehnat, barqarorlik va taraqqiyot tarixidir.

**Zuhra
MIRRAHIMOVA.**

O'ZBEKISTON – CHEXIYA BIZNES-FORUMI**IQTISODIY ALOQALARNI KENGAYTIRISH ISTIQBOLLARI MUHOKAMA QILINDI**

Toshkent shahrida Chexiya Respublikasi Bosh vaziri Andrey Babishning mamlakatimizga rasmiy tashrifi doirasida ikki davlat ishbi-larmon doiralari ishtirokida qo'shma biznes-forumi bo'lib o'tdi. Unda "O'zmetkombinat" AJ Boshqaruv raisi — Bosh direktor Bahodir Abdullayev boshchiligidagi delegatsiya ham faol qatnashdi.

Tadbirda O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri Abdulla Oripov va Chexiya Respublikasi Bosh vaziri Andrey Babish, shuningdek, sanoat korxonalari, investitsiya va moliya tuzilmalari vakillari ishtirok etdi. Chexiya delegatsiyasi tarkibida mashinasozlik, energetika, kimyo, farmatsevtika hamda transport-logistika yo'nalishlarida faoliyat yurituvchi 50 dan ortiq yirik kompaniya rahbarlari bor edi.

Qayd etilishicha, so'nggi sakkiz yilda ikki davlat o'rtasidagi savdo hajmi ikki barobarga oshgan. Hozirda O'zbekistonda Chexiya kapitali ishtirokida 36 ta qo'shma korxona faoliyat yuritmoqda. Hamkorlik, ayniqsa, farmatsevtika, oziq-ovqat sanoati, qurilish materiallari va turizm sohalarida samarali rivojlanmoqda.

Muzokaralarda iqtisodiy aloqalarni ken-

gaytirish istiqbollari muhokama qilindi. Jumladan, rangli metallarni qazib olish va qayta ishlash, tog'-kon texnikalarini mahalliy-lashtirish, gidroelektr stansiyalar qurish, kogeneratsiya uskunalarini joriy etish, raqamlashtirish va energiya samaradorligini oshirish yo'nalishlari ko'rib chiqildi. Shuningdek, IT-parklardagi mutaxassislar salohiyatidan foydalanib, uchinchi davlatlar bozori uchun qo'shma raqamli mahsulotlar yaratish ma-



salalari muhokama etildi.

Mazkur biznes-forum O'zbekiston va Chexiya o'rtasidagi iqtisodiy hamkorlikni yanada mustahkamlash, yangi qo'shma loyihalarni yo'lga qo'yish hamda ishbi-larmonlik aloqalarini kengaytirish uchun muhim platforma bo'ldi. Tomonlar kel-gusida o'zaro manfaatli hamkorlikni izchil rivojlantirishga tayyor ekanini bildirdi.

Bahodir NO'MONOV.

"LIAONING MINERAL & METALLURGY GROUP CO." TASHRIFI

"O'zmetkombinat" AJga Xitoyning yirik sanoat kompaniyalaridan biri "Liaoning Mineral & Metallurgy Group Co." delegatsiyasi tashrif buyurdi.

Tashrif davomida mehmonlar "O'zmetkombinat" AJning asosiy ishlab chiqarish quvvatlari, zamonaviy texnologik jarayonlari, energiya samaradorligi bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar hamda korxonaning strategik rivojlanish yo'nalishlari bilan batafsil tanishdilar.

Shuningdek, ikki tomon o'rtasida metallurgiya sanoatida hamkorlikni chuqurlashtirish, zamonaviy va energiya tejamkor uskunalarini yetkazib berish, innovatsion texnologiyalar transferi hamda qo'shma investitsion loyihalarni amalga oshirish masalalari yuzasidan atroflicha muzokaralar olib borildi. Muzokaralar davomida o'zaro manfaatli hamkorlikni kengaytirish bo'yicha aniq yo'nalishlar belgilab olindi.

Xususan, "O'zmetkombinat" AJ hududida joylashgan Texnopark negizida import o'rnini bosuvchi, yuqori sifatli o'tga chidamli g'ishtlar ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish bo'yicha dastlabki kelishuvlarga erishildi. Ushbu loyiha nafaqat ichki bozor ehtiyojlarini qondirish, balki eksport salohiyatini oshirishga ham xizmat qilishi kutilmoqda.

Ma'lumot o'rnida, "Liaoning Mineral & Metallurgy Group Co." 2007-yilda Xitoyning Dalyan shahrida tashkil etilgan bo'lib, bugungi kunda metallurgiya va mineral resurslar sohasida faoliyat yurituvchi yirik xalqaro kompaniyalardan biri hisoblanadi. Kompaniya po'lat sanoati uchun kompleks "one-stop" yechimlarni taklif etib, uskunalar ishlab chiqarish, loyihalarni amalga oshirish, xalqaro savdo hamda muhandislik xizmatlarini ko'rsatishga ixtisoslashgan.

Uchrashuv yakunida tomonlar o'zaro manfaatli hamkorlikni izchil rivojlantirishga qat'iy qiziqish bildirdilar. Kelgusida qo'shma loyihalarni bosqichma-bosqich amalga oshirish, ilg'or tajribalarni almashish hamda uzoq muddatli strategik sheriklikni mustahkamlash yuzasidan muhim kelishuvlar-ga erishildi.

Nigora AHMEDOVA.

AMALIYOT VA TAJRIBA UYG'UNLIGI

Sanoat tarmoqlari uchun malakali kadrlar tayyorlash bugungi kunning ustuvor vazifalaridan biridir. Shu maqsadda O'zbekiston Respublikasi Konchilik va metallurgiya sanoati faxriylar kengashi tomonidan tizimli ishlar olib borilmoqda. Xususan, Bekobod shahar hududiy filiali oliy ta'lim muassasalari bilan hamkorlikni kuchaytirib, amaliy tashabbuslarni yo'lga qo'yimoqda.

Joriy yilning aprel oyida Faxriylar kengashi vakillari Ma'murjon Madumarov, Olim To'ychiyev, Edem Abyazizov va Almira Petrova Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti, Olmaliq davlat texnika universiteti hamda Moskva po'lat va qotishmalar instituti Metallurgiya kafedralarida talabalarga ma'ruzalar o'qidi. Ma'ruzalarda po'lat, prokat mahsulotlari, ferroqotishmalar hamda rangli metallar ishlab chiqarish texnologiyasi haqida tushunchalar berildi.

Mazkur bilimlarni mustahkamlash maqsadida talabalar may

oyida "O'zmetkombinat" AJga tashrif buyurishdi. Dastlab ular kombinat tarixi muzeyida bo'lib, korxonaning shakllanishi, rivojlantirish bosqichlari va bugungi faoliyati bilan yaqindan tanishdi.

Shundan so'ng talabalar ishlab chiqarish maydonlariga yo'l oldi. Xususan, ular Quyuv-prokatlash majmuasi hamda Rangli metallar ishlab chiqarish korxonasida bo'lib, zamonaviy texnologik jarayonlarni bevosita kuzatdi. Mutaxassislar tomonidan ishlab chiqarish bosqichlari, uskunalar ishlashi va xavfsizlik qoidalarini batafsil ma'lumotlar berildi.

Bunday amaliy uchrashuvlar talabalarning nazariy bilimlarini mustahkamlash, kasbiy ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasi esa kelgusida raqobatbardosh, malakali kadrlarni tayyorlashga xizmat qiladi.

Ma'murjon MADUMAROV.



SIFAT, ISHONCH VA BARQAROR HAMKORLIK

Bugungi kunda qurilish sohasida energiya samaradorligi va ekologik xavfsizlik masalalari tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ana shunday talablarga javob bera oladigan korxonalardan biri “Bekobod Bazalt” MCHJ bo‘lib, u mamlakatimizda zamonaviy issiqlikni saqlovchi materiallar ishlab chiqarishga ixtisoslashgan yetakchi ishlab chiqaruvchilar safidan joy olgan.

Korxonada ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar yuqori sifati, ishonchliligi va ekologik tozaligi bilan ajralib turadi. Xususan, bu yerda mineral vata, turli xil plitalar va tikilgan matlar kabi uch turdagi asosiy mahsulotlar tayyorlanmoqda. Ularning barchasi xalqaro standartlarga mos bo‘lib, ichki bozorda ham, qurilish tashkilotlari orasida ham yuqori talabga ega.

Ishlab chiqarish jarayonida zamonaviy texnologiyalardan samarali foydalanish, mahsulot sifatini doimiy nazorat qilish korxonaning ustuvor vazifalaridan hisoblanadi. Bu esa “Bekobod Bazalt” MCHJga o‘z mijozlari ishonchini mustahkam saqlash va yangi hamkorlar doirasini kengaytirish imkonini bermog‘da.

Ayni paytda korxona qator yirik tashkilotlar bilan barqaror hamkorlikni yo‘lga qo‘ygan. “New Times Buildings” MCHJ, “Land-house” MCHJ, “Sarkor-Ishonch-777” MCHJ, “D-Products” MCHJ, “International Invest” MCHJ, “Yunusobod House” MCHJ hamda “Bekobod Asfalt Beton” MCHJ kabi korxonalar shular jumlasidandir. Ushbu

hamkorlik aloqalari mahsulotlarning o‘z vaqtida va uzluksiz yetkazib berilishini ta‘minlab kelmoqda.

Albatta, har qanday yutuq ortida inson mehnati turadi. Korxonada faoliyat yuritayotgan malakali ishchi-xodimlar ish jarayonining samaradorligini ta‘minlashda muhim o‘rin tutadi. Taroziyon-belgilovchi Tursunoy Naimova, usta Oliyaxon Qo‘chqorova, tayyor mahsulotni jo‘natish ustasi Xurshid Ro‘ziboyev, konveyer liniyasi operatorlari Avazbek Ergashboyev va Sarvar Rahmonov, yordamchi ishchi Ibrohim Hoshimov, elektr jihozlariga xizmat ko‘rsatish bo‘yicha usta Bobur Xojayev kabi xodimlar o‘z mehnati bilan korxona ravnaqiga munosib hissa qo‘shmoqda.

“Bekobod Bazalt” MCHJ sifat va ishonch tamoyillariga sodiq qolgan holda, ishlab chiqarish hajmini kengaytirish, yangi texnologiyalarni joriy etish va hamkorlik aloqalarini mustahkamlash orqali mamlakatimiz sanoati taraqqiyotiga o‘z hissasini qo‘shishda davom etmoqda.

Jamoliddin ELCHIYEV,
“Bekobod Bazalt” MCHJ rahbari.



YOSH MUTAXASSISLAR - SANOAT TAYANCHI

Sanoat korxonalari taraqqiyoti, avvalo, inson kapitaliga bog‘liq. Bugun “O‘zmetkombinat” AJda faoliyat yuritayotgan yosh mutaxassislar bu haqiqatni amaliy natijalar bilan tasdiqlamoqda. Ularning bilimiga chanqoqligi, mehnatsevarligi va mas‘uliyati korxona samaradorligini oshirishda muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda.

Shunday fidoyi xodimlardan biri ko‘priqli kran haydovchisi Hasan Parmanov. U ko‘p yillardan buyon kasbiga sadoqat bilan yondashib, ish jarayonida yuqori mas‘uliyat va ehtiyotkorlik namoyon etib kelmoqda. Uning mehnati oddiy ko‘rinsa-da, katta tajriba va diqqatni talab qiladi.

Hasan boshqarayotgan kran 17 metr balandlikda joylashgan bo‘lib, 20 tonnagacha yuk

ko‘taradi. Bunday sharoitda ishlash jismoniy chidam bilan birga ruhiy barqarorlikni ham talab etadi. Har bir harakat aniq hisob-kitobga asoslanadi, xavfsizlik qoidalari esa so‘zsiz bajariladi.

Yosh mutaxassisning shakllanishida “ustoz-shogird” an‘anasining o‘rni katta. Ustozi Mahmud Pirmatov unga kasb sirlarini puxta o‘rgatib, mas‘uliyat va intizomni singdirgan. Bugun Hasan uning ishonchini oqlab, jamoada munosib o‘rin egallagan.

Mutaxassislar ta‘kidlashicha, ana shunday yosh kadrlar sanoatning ertangi kunidir. “O‘zmetkombinat”dagi har bir yutuq zamirida aynan shunday mehnatkash insonlar turibdi.

Ravshan BOLTABOYEV.

“Zakovat - 2026”

"O'ZMETKOMBINAT" JAMOASI — INTELLEKTUAL BELLASHUVI G'OLIBI

2026-yil 2-may kuni O‘zbekiston metallurgiya va mashinasozlik sanoati tarmoqlari xodimlari kasaba uyushmasi Respublika Kengashi tashabbusi bilan “Zakovat” intellektual o‘yining Respublika bosqichi yuqori saviyada tashkil etildi.

Mazkur nufuzli bellashuv sanoat tarmog‘ida faoliyat yuritayotgan korxona va tashkilotlar o‘rtasida bilim, tafakkur va jamoaviy hamjihatlikni sinovdan o‘tkazdi.

Musobaqada hududiy bosqichlarda g‘olib bo‘lib chiqqan eng kuchli jamoalar ishtirok etdi. Ular orasida “O‘zmetkombinat” aksiyadorlik jamiyati sharafigi himoya qilgan “Metallurg” jamoasi o‘zining barqaror intellektual tayyorgarligi bilan alohida e‘tibor qozondi. Kuchli raqobat, keskin savol-javoblar va qizg‘in muhokamalar muhitida jamoa a‘zolari tezkor fikrlash, mantiqiy tahlil va aniq javoblari bilan ustunlikni qo‘lga kiritdi.

Bellashuv davomida har bir savol ishtirok-



chilardan nafaqat bilim, balki strategik yondashuv va jamoaviy muvofiqlikni ham talab qildi. “Metallurg” jamoasi aynan shu jihatlari bilan farqlanib, final bosqichida ishonchli o‘yin namoyish etdi va faxrli 1-o‘rinni egalladi.

Ushbu g‘alaba korxonada intellektual salohiyatni oshirish, xodimlar o‘rtasida bilim va

tahlil madaniyatini rivojlantirishga qaratilgan tizimli ishlar samarasi sifatida baholanmoqda. “O‘zmetkombinat”da so‘nggi yillarda yosh mutaxassislarni qo‘llab-quvvatlash, ularni turli intellektual loyihalarga jalb etish va kasbiy o‘sish imkoniyatlarini kengaytirishga alohida e‘tibor qaratilmoqda.

Mutaxassislar fikricha, bunday yutuqlar nafaqat korxona nufuzini oshiradi, balki jamoada raqobatbardoshlik va innovatsion tafakkurni mustahkamlaydi. Ayniqsa, “Zakovat” kabi intellektual o‘yinlardagi ishtirok xodimlarning bilim darajasini oshirish bilan birga, ularning jamoada ishlash ko‘nikmalarini ham rivojlantiradi.

“Metallurg” jamoasining bu muvaffaqiyati kelgusida yanada yuqori natijalarga erishish uchun mustahkam poydevor bo‘lib xizmat qilishi shubhasiz.

Bekzod QODIROV.

DAM OLISH KUNLARI - SAMARQANDGA SAYOHAT

“O‘zmetkombinat” AJ kasaba uyushmasi qo‘mitasi tashabbusi bilan korxona ishchi-xodimlari uchun Samarqand shahriga navbatdagi madaniy-ma‘rifiy sayohat tashkil etildi.

Mazkur tashabbus xodimlarning madaniy dunyoqarashini kengaytirish, ularning ma‘naviy ehtiyojlarini qo‘llab-quvvatlash hamda jamoada ijtimoiy faollikni yanada oshirishga qaratilgani bilan ahamiyatlidir.

Sayohat dasturi puxta rejalashtirilib, ishtirokchilar uchun eng diqqatga sazovor tarixiy va madaniy maskanlar tanlandi. Dastlab delegatsiya dunyoga mashhur Registon maydoniga tashrif buyurib, bu betakror me‘moriy ansamblning ulug‘vorligi va tarixiy ahamiyati bilan yaqindan tanishdi. Ustoz me‘morchilik namunalarini ko‘zdan kechirish jarayonida ishtirokchilar Samarqandning boy o‘tmishi haqida yangi tasavvurlarga ega bo‘ldilar.

Shuningdek, Imom al-Buxoriy majmuasiga uyushtirilgan ziyorat sayohatning eng ta‘sirchan lahzalaridan biri bo‘ldi. Bu maskan xodimlarda chuqur ma‘naviy his-tuyg‘ular uyg‘otib, ularni ezgulik va

insoniylik qadriyatlari haqida mushohadaga chorladi.

Shahar bo‘ylab davom etgan sayohat davomi-

da boshqa tarixiy obidalar ham ko‘zdan kechirildi. Samarqandning ko‘hna va betakror muhiti, qadimiy me‘moriy yodgorliklari va asrlar davomida shakllangan madaniy merosi har bir ishtirokchida unutilmas taassurot qoldirdi.

Mazkur sayohat xodimlarga nafaqat mazmunli hordiq, balki yangi bilim va ilhom ham bag‘ishladi. Eng muhimi, jamoa a‘zolari o‘rtasidagi do‘stona munosabatlar yanada mustahkamlanib, o‘zaro hamjihatlik ruhi kuchaydi.

Tadbir yakunida ishtirokchilar bunday tashabbuslar mehnat jamoasida sog‘lom ijtimoiy muhitni shakllantirish, xodimlarning motivatsiyasini oshirishda muhim o‘rin tutishini ta‘kidladilar. “O‘zmetkombinat”da bu kabi madaniy-ma‘rifiy sayohatlarni muntazam davom ettirish rejalashtirilgan.

Artur KULIYEV.



HIKMATLAR XAZINASIDAN

Qalb oynasining sof bo‘lishi, xunukdan go‘zalni ajarata olishi uchun kerak.

Jaloliddin Rumi.

Bilmaganni so‘rab o‘rgangan olim, orlanib so‘ramagan o‘ziga zolim

Alisher Navoiy.

Bilim bilan saodat yo‘li ochiladi, shunga ko‘ra, Ilmli bo‘l, baxt yo‘lini izla.

Ahmad Yugnakiy.

Qadimda bir donishmand aytgan ekan: “Men vaqtning nima ekanini bilaman. Ammo “Vaqt nima?” deb so‘rasalar, aytolmayman”.

Asqad Muxtor.

Borma aytmaganning dasturxoniga, Qo‘l uzatsang, qadring tushar noniga.

Pahlavon Mahmud.

HIKOYA

UCHTA SHAXSGA NISBATAN O‘LIM HUKMI TAYINLANDI

Ular: din peshvosi, oqlovchi (advokat), fizik olim edi.

Jazo vaqti kelganda, birinchi bo‘lib diniy olimni keltirishdi. Boshini gilotin (boshni tanadan judo qiladigan uskuna) ostiga qo‘yib undan:

- O‘limingdan oldin aytdigan oxirgi gaping bormi? - deb so‘rashdi.

Din olimi: - Men Allohga ishonaman, Alloh... Alloh... Alloh meni qutqaradi! - dedi. Gilotin tig‘i zarb bilan tusharkan, boshiga yetmasdan to‘satdan to‘xtab qoldi. Olomon hayratlanib: - Olimga ozodlik! Dinga ozodlik! Uni ozod qiling! - deb hayqirdi. Din olimi jazodan qutildi.

Navbat oqlovchiga keldi.

Undan: - O‘limingdan oldin aytdigan oxirgi gaping bormi? - deb so‘rashdi.

U: - Men din olimichalik Allohni tanimayman! Lekin men, adolatga ishonaman! Adolat meni qutqaradi! - dedi. Uskuna tig‘i tushib uning bo‘yniga yetay deganda to‘xtab qoldi.

Olomon yana hayratlandi. - Oqlovchiga ozodlik! Yashasin adolat! Uni ozod eting! -



dedilar. U qutilib qoldi.

So‘nggi navbat fizik olimga keldi. Undan ham:

- O‘limingdan oldin aytdigan oxirgi gaping bormi?

- deb so‘rashdi. U: - Men din olimichalik Allohni,

oqlovchichalik adolatni bilmayman. Lekin, gilotin

arqoni tugun bo‘lib qolgan. Aynan shuning uchun uning tig‘i tushishiga mone‘lik qilyapti! - dedi.

Fizikning so‘zi to‘g‘ri chiqdi. Muammoni bartaraf etishdi. Va uning boshini tanasidan judo qilishdi.

Xulosa: «Sukut qilib biror marta ham nadomat qilmadim. Lekin gapirib qo‘yib ko‘p marta afsuslandim».

Ba‘zan haqiqat bo‘lsa ham, uni aytishdan ko‘ra, og‘zingizni yopishingizda Sizga xayr bor!

O‘zingizning donoligingizni ko‘rsatishdan ko‘ra, ba‘zan o‘zingizni bilmaganga solishingiz sizga yaxshiroq!

Xulosa o‘zingizdan...

Ubaydullo MIRZAYEV.

SO‘RAGAN EDINGIZ...

Manfaatlar to‘qnashuvi: oldini olish va javobgarlik

- Xodim ish joyida manfaatlar to‘qnashuvi yuzaga kelsa, u qanday yo‘l tutishi va bu holat uchun qanday javobgarlik bor?

- Xodim shaxsiy manfaatlari xizmat vazifalariga ta‘sir qilishi mumkin bo‘lgan holatni darhol ish beruvchiga ma‘lum qilishi shart, aks holda bu O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksiga muvofiq mehnat intizomini buzish deb baholanadi. Ish beruvchi esa vaziyatni bartaraf etish choralarini ko‘radi (masalan, xodimni boshqa

vazifaga o‘tkazish yoki qaror qabul qilishdan chetlashtirish). Agar xodim bu talablarni buzsa, unga ogohlantirish, hayfsan yoki hatto ishdan bo‘shatish kabi intizomiy choralar qo‘llanishi mumkin.

Inomjon ESHONQULOV, huquqshunos.



MUASSIS:
O‘zbekiston metallurgiya kombinati aksiyadorlik jamiyati.

www.uzbeksteel.uz

Muharrir v.b:
Bahodir RAHMONKULOV

TAHRIRIYAT: Bekobod shahar
“O‘zmetkombinat”
aksiyadorlik jamiyatining Ijroiya
apparatida joylashgan.
Tel: 10-19

Gazeta elektron shaklda
oyda ikki marta
chiqadi.

Gazeta tahririyat kompyuterida terilib,
sahifalandi.
Bichimi A-3.
ISSN 2181-645X

Sahifalovchi:
Nigora AXMEDOVA.

Toshkent viloyati Axborot va
ommaviy kommunikatsiyalar
boshqarmasi tomonidan 2015-
yil 6-mayda 03-006 raqam bilan
ro‘yxatga olingan.